

ISLOMDAN KEYINGI DAVR VA UNING ADABIYOTIGA TA'SIRI

Rahmatova Mahfuza

FarDu Filologiya fakulteti tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20697740>

Annotatsiya

Ushbu maqola islom dinining qabul qilinishidan keyingi davr va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ko'rsatgan transformation ta'sirini o'rganishga bag'ishlandi. Unda islomiy qadriyatlar, Qur'on oyatlari va hadislar ta'sirida so'z san'atida yuz bergan janriy ,g'oyaviy hamda falsafiy o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy va Yusuf xos hojib kabi mutafakkirlar ijodi misolida tasavvufiy adabiyotining shakllanishiva uning ahamiyati yoritgan. Material adabiyotshunoslar , talabalar va keng ommasiga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar; Islom, din, Yassaviy, Yugnakiy, Rumi, Navoiy, Buxoriy asarlari, islomiy adabiyotlar.

Annotation

This article is dedicated to exploring the post-Islamic period and its transformational influence on the literature of Turkic peoples. It analyzes the genre, ideological, and philosophical changes that occurred in Turkic verbal art under the influence of Islamic values, Quranic verses, and Hadiths. Furthermore, it highlights the formation and significance of Sufi literature through the works of thinkers such as Ahmad Yassawi, Yugnakiy and Yusuf Khass Hajib. The material is intended for literary scholars, students, and a wide circle of readers.

Key words: Islam, religion, Yassawi, Yugnakiy, Navai, Rumi, words of Bukhari, islamic literature.

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию послисламского периода и его трансформационного влияния на литературу тюркских народов. В ней анализируются жанровые, идейные и философские изменения, произошедшие в тюркском словесном искусстве под влиянием исламских ценностей, аятов Корана и хадисов. Также на примере творчества таких мыслителей, как Ахмад Ясави, Ахмат Югнаки и Юсуф Хас Хаджиб, освещаются формирование и значение суфийской литературы. Материал предназначен для литературоведов, студентов и широкого круга читателей.

Ключевые слова: Ислам, религия, произведения Ясави, Югнаки, Руми, Навои, Бухари, исламская литература

Islom - "bo'sunish", "o'zini Alloh idorasiga topshirish" demakdir. VI asr oxiri va VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida payg'ambar Muhammad (s.a.v) tomonlaridan tadbiriq qilindi. VIII asr boshlarida Sharq o'lkalari tomon yura boshladi. Movounnahr, Xuroson, Termiz, Marv va boshqa shaharlarga islom o'tilib kirdi. So'rov xati bilan islomni qabul qilmaganlarni, jang yo'li bilan bo'sundirishga majbur bo'ldilar. Islom dinida faqat yakka Alloh ilohdir. Shuning uchun Turkiston zaminidagi ko'plab Zardusht, Budda va ko'k tangri kabi dinlar siqib chiqarildi va ibodatxonalar yo'q qilib, budda sindirildi, xalifa Qutayba Abu Muslim tomonidan. Bu juda katta siyosat edi. Chunki Turkiston zaminidagi islomdan avvalgi manbalar juda oz va yo'qotishlar katta. Ammo islom kirib kelishi bilan ilm sohasida shunaqangi katta ishlar qilindiki, hatto arab grammatikasini Sharq olimi tahrirladi. Adabiyotga juda katta ta'sir qildi. Buni hech kim inkor

etolmaydi albatta. Misol uchun: Buxoriy, Termiziy, A. Yassaviy, A. Yugnakiy, Yusuf xos hojib shular jumlasidir. Hadislar otasi I. Buxoriy, dunyo kezib hadislarini o'rgandi, ularni tahrir qildi va 3 guruhga bo'ldi

- Sahih-eng ishonchli
- Besahih-ishonchli
- Zaif- ishonchsiz hadislar

Shunday qilib u 600 mingga yaqin hadis to'ladi va uni "Al- jome as Sahihdir".

"Gapirish va amal qilishdan oldin ilm o'rganish lozimdir. Chunki Alloh taolo birinchi bo'lib ilmni zikr qilgan." - deydi, Imom Buxoriy kitobning ilk sahifasidan. Demak, Islom bu shunchaki, din emas, ya'ni islom insonlarni zabt etgan Alloh jamoliga borish uchun yo'ldir. Ibodat qilishdan tashqari Qur'on kitobi orqali dunyoviy ilmlarni ham o'rganib ularni tadbiiq etganlar.

Zamaxshariy arab tilini va murakkab arab grammatikasini o'rgandi. U zotning Qur'on ma'nolarini tushunish va tilshunoslik sohasidagi merosidan hozirgi asrimizda ham butun dunyo musulmonlari keng foydalanib kelmoqda. Uning asarlari

- Al-Mufassal
- Al-Kashshof
- Asos al-balog'a
- Avzot uz- zahab

Alloma o'zining ijtimoiy, axloqiy va diniy qarashlarni aks ettiruvchi ko'plab o'lmas hikmatlar qoldirgan. "Muhammad (s.a.v) payg'mbar alayhissalomning yo'llari mening yo'limdir, baxtu saodatini ham, najotim ham shu yo'ldir" deydi alloma. Payg'abar Muhammad (s.a.v) qilgan ishlarini qilish u zotni yaxshi ko'rish, aytgan so'zlarini yoddan chiqarmaslik bu albatta musulmon uchun sunnatdir. Zamaxshariy bu so'zlarni juda ajoyib tarzda yoritib bergan. Hamda unga "Jorulloh" yani "Allohnig qo'shnisi" degan nom berilgan. Bundan tashqari A. Yuginakiy va Jaloliddin Rumiy ijodi islom tasavvufi va falsafasining eng yorqin namunalari hisoblanadi. Bu asarlar islomning qanday mo'jizaviy, murakkab din ekanligini va insonlarni poklikka, ezgulikka, bu hayot o'tkinchi faqat Alloh jamoliga yetishish uchun yashashlari, haqiqiy sevgi mana shu ekanligi aytib o'tilgan. Ularning asarlarida hatto tirik odamning ruhi o'z tanasiga bo'ysunmay sajda qilishi, bunday odamga koinot ham torlik qilishini his qilamiz. "Biz Allohni ko'ra olmasligimiz ham bir rahmat ekan. Agar biz uning jamolini ko'rsak bizning tanamiz va aqlimiz bunga dosh bera olmaydi" - degan Iso Masih (Qalb iffati) Shunday qilib, Xo'ja Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" asarini yozdi. Hamda u birinchi tasavvur ilm otasi deb aytiladi. Uning asari butunlay Qur'on oyatlari va hadislarining turkiy tildagi she'riy talqinidir. "Mening hikmatlarim farmoni Subhon va Qur'on mag'zidir deb ta'kidlagan. Ahmad Yugnakiy "Hibbat ul Haqqoyiq" dostoni islomiy hamd va na't bilan boshlanadi. Asardagi har bir bob to'g'ridan-to'g'ri islomiy manbalarga tayanadi. Mavlono Jaloliddin Rumiy "Masnaviy -Manaviy" uning 25000 baytdan iborat bu asari Sharq olamida "Fors tilidagi Qur'on" deb nomlanadi. O'sha davra Rumiy tolerantlik, yani diniy bag'rikenglikni targ'ib qildi. Bu esa G'arb mamlakatlarida keyinchalik rivojlandi. Buni biz Molyer, Lessingning asarlarida ko'ramiz. Mavlono bilgan odam albatta samo raqsini ham biladi. Yani musiqa va ishqni raqs bilan uyg'unlashtiradi. Shu turishda u tarki dunyo qiladi. Tana harakatda ruh esa yaratgan uchun ibodatda bo'ladi.

Tingla naydin, chin hikoyat aylagay,
Ayriqlardin shikoyat aylagay.
Men qamish erdim, kesib keltirdilar,
HOLA REKSAM, EL XAMA O'RTANDILAR.

("Masnaviy"ning ilk baytlaridan).

Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar davrida islom dini cho'qqisiga chiqadi. Ilm tili arab, so'zlashuv tili esa fors, turkiy tili edi. Demak o'sha davr insonlari kamida 3 ta tilni bilgan. Manbalarda keltirilishicha Farobiy 18 ta tilni mukammal bilgan. U barcha sohada musiqa, falsafa, falakiyot, tabobat, adabiyot, siyosatshunoslik, matematika va boshqa bir necha fanlarni bo'lgan. "Ikkinchi muallim" nomini olgan. 160 dan ortiq asar yozgan. Shulardan biri "Risola fi aro ahl al-mafina al-fazila" asaridir. Bundan tashqari Rudakiy, Firdavsiy, Yusuf xos hojib, M. Qoshg'ariy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar Qur'on orqali ajoyib xazinalar qoldirdilar va o'rgandilar. Boshqalar ham islom ostida ijod qildilar. Masalan: Navoiy "Xamsa" asarida haqiqiy ishqni yoritib bergan. Layli misolida Allohning go'zal jamoliga yetisha olmagan Majnunni ko'rishimiz mumkin. Navoiy o'z asarlari davomida necha avlodlar uchun ma'naviyat va odobda, o'rnak bo'lib xizmat qiladigan yorqin badiiy siymolar qoldirdi. Germaniyalik olimlar aytadiki "Har bir inson "Xamsa" asarini bilishi, har birini uyida bu kitob bo'lishi kerak. Kitobni o'qigan odam oilasiga, ota onaga va vataniga mehrlil inson bo'ladi" deb ta'kidlaydilar.

Odami ersang, demagil odamiy

Oniki yo'q xalq g'amidin g'amiy

Boshida aytib o'tganimizdek, Islom katta yo'ldir, bu yo'ldan to'g'ri ketganlar dunyoni o'zgartirganlardir. Biz ularni asarlaridagi bir misrani tarjima qilib, asosiga yetmoqchi bo'lsak, bir kitob yaratsa bo'ladigan ma'no borligini anglaymiz.

Islom bu shunchaki so'z emas. Qur'on aqidalari bilan qancha davlat yuksaldi. Islom dunyoni qilichsiz egalladi, madaniyat va ma'rifatni Turkiston yaratdi. Insonlarni tartibga soldi. Hozir ham uning nurlari ostida Qur'on yozuvlari, Hadislarning so'zlari bilan juda go'zal asarlar yaratilmoqda va bu davom etadi. "Agar islom Allohga taslim bo'lish degan ma'noni anglatssa, unda barchamiz islomda yashaymiz va islomda vafot etamiz" - deydi V. Gyote. Islom bizning madaniyatimizni qanchalar yo'qotgan bo'lsa, bizga undan ham ko'plab xazinalar berdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy "Xamsa" yangi asr avlodlari Toshkent 2021
2. "Mavlono" Mehmet Uder "Sharq" nashriyoti Toshkent 2020
3. O'zbek adabiyoti tarixi "Nasimxon Rahmonov" "Sano-standart" nashriyoti 2017
4. "Qalb iffati" Nuriya Cheleen "iBook" MChJ 2022